

Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Abdurahmonova Mavluda

abduraxmonovamavluda6@gmail.com

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot

Nurullayeva Iroda

inurullayeva336@gmail.com

Annotatsiya

Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi, oilasi-Muso Shayxning qizi Oysha xotun, opasi-Gavhar Shahnoz haqida ma’lumot berildi. Adibning hayot yo‘li batafsil yoritildi. “Devoni hikmat”da ilohiy ishq va oshiqlik, ma’rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari samimiy va ta’sirli ohanglarda yetkazib berilgan. Uning fikricha, “Haqning so‘zini emas, o‘zini bilish” asosiy vazifadir. Shuning uchun donishmand bu dunyo rohatini qidiradigan so‘fiy – so‘fiy emas, toat-ibodat qilib, halollik va poklikni targ‘ib etib, dunyoning g‘am-g‘ussasini chekib, xalq tashvishi bilan yashagan insongina haqiqiy so‘fiydir, deydi.

Asarning boshidan yakuniga qadar ulug‘vor insoniy fazilatlar: kamtarinlik, mehr-muhabbat, ishq, sadoqat, haqiqat, adolat, hurfikrlik, insonni insondan ayirmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtayi nazardan olqishlanadi. Va aksincha, joxillik, nodonlik, yomonlik, savodsizlik, haqsizlik, adolatsizlik, molparastlik kabi illatlar qoralanadi. Bunday xislatga ega bo‘lgan insonlar insof diyonatga chaqiriladi.

Kalit so‘zlar: So‘fiylik, hikmatlar, tariqat, murid, tasavvuf,shariat, ma’rifat, avliyo

Ahmad Yassaviy 1103-yilda Sarom (Sayram) qishlog‘ida Shayx Ibrohim xonadonida dunyoga keladi. Keyinchalik u o‘z ona yurtini asarlarida “Ul muborak Turkiston” deb tilga oladi. Yassaviy tug‘ilganidan so‘ng, ko‘p o‘tmay onasi – Muso Shayxning qizi Oysha xotun olamdan o‘tadi. Yetti yoshida esa otasi vafot etadi. Kichik Ahmadning tarbiyasi opasi Gavhar Shahnoz zimmasiga tushadi.

Opasi bilan Yassi shahriga ko‘chib o‘tishgach, Ahmad dastlabki ta’limotni Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. So‘ngra u yerdagi bir qator tolibi ilmlar kabi Arslon bobo qo‘lida tarbiya va tahsil oladi. Aynan shu shaharda Yassaviy botin ilmi sirlarini mukammal o‘zlashtiradi. O‘sha zamonlarda Movarounnahrning ilm-ma’rifat markazlaridan bo‘lgan Buxoroda ko‘plab turkistonlik toliblar yig‘ilishgan. Ustozi Arslon bobo ko‘rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga yo‘l oladi.

Buxoroda arab, fors tillarini o'rganish bilan bir qatorda, forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Abdulloh Baqriy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslahat bo'lib, davrning eng peshqadam olimi va so'fiysi Shayx Hamadoni muridlari qatoridan joy oladi. Shayx Hamadoniydan suluk odoblarini o'rganadi, ilm-u saboqlaridan bahramand bo'ladi. Ahmadning o'zi "Ustoz Yusuf Hamadoni huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini" aytadi. U o'z ustozining eng ishongan va e'tiborli xalifalaridan edi. Sharqshunos olim Orif Usmonning ma'lumotlariga ko'ra, Abdulholiq G'ijduvoni kunlardan bir kuni Yusuf Hamadoniydan shogirdlarining taqdiri xaqida so'zlab berishni iltimos qilgan. Shunda ustoz "Mening asl xalifalarim avval Xoja Abdullo Bakriy, so'ngra Xoja Xasan Andoqi, undan so'ng Xoja Ahmad Yassaviydir Xoja Ahmad Yassaviy o'z navbati bilan xalifalik qilganidan keyin bir oz vaqt o'tgach, o'z vatani Turkistonga ketadi. So'ngra uning o'rniga sen halifalik qilasan" – degan ekan. Voqealar ustoz Yusuf Hamadoni aytganidek sodir bo'lib, keyinchalik Buxorodan o'z yurti Yassiga qaytgan Ahmad madrasa va xonaqo qurdirib, o'z atrofiga ko'plab shogirdlarni to'playdi.

Ahmad Yassaviy tarbiyalab yetishtirgan shogirdlar Mansur bobo (Arslon boboning o'g'li), Abul Malik Oto Tosh Ho'ja (Zangi boboning otasi), Hakim Oto (Sulaymon Boqirg'oni), Zangi Oto va boshqa ko'plab tolibi ilmlardir. U o'zi asos solgan "Yassaviya" tariqatini o'z shogirdlari orqali Turkiston va Shosh atrofidagi viloyatlarga tarqata boshlagan. U so'fiylik g'oyalari, shuningdek, o'z tariqati asoslarini targ'ib etishda she'rlaridan, hikmatlaridan foydalanadi.

Ulug' mutafakkirning juda chuqur va boy mazmunga ega bo'lgan "**Devoni hikmat**" asaridagi so'fiylik, Yassaviyning falsafiy dunyoqarashi o'zining butun borlig'i bilan o'quvchining diqqatini rom etadi. Uning o'zi "Devoni hikmat" nomi bilan biror bir kitob yozmagan. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan yig'ilib, tartib berilgan.

"Devoni hikmat"da ilohiy ishq va oshiqlik, ma'rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari samimiy va ta'sirli ohanglarda yetkazib berilgan. Uning fikricha, "Haqning so'zini emas, o'zini bilish" asosiy vazifadir. Shuning uchun donishmand bu dunyo rohatini qidiradigan so'fiy – so'fiy emas, toat-ibodat qilib, halollik va poklikni targ'ib etib, dunyoning g'am-g'ussasini chekib, xalq tashvishi bilan yashagan insongina haqiqiy so'fiydir, deydi.

Asarning boshidan yakuniga qadar ulug'vor insoniy fazilatlar: kamtarinlik, mehr-muhabbat, ishq, sadoqat, haqiqat, adolat, hurfikrlik, insonni insondan ayirmaslik kabi masalalar falsafiy nuqtayi nazardan olqishlanadi. Va aksincha, joxillik, nodonlik, yomonlik, savodsizlik, haqsizlik, adolatsizlik, molparastlik kabi illatlar qoralanadi. Bunday xislatga ega bo'lgan insonlar insof diyonatga chaqiriladi.

Uning fikricha, insonlar bir-birlariga yaxshilik qilishlari, hasadgo'y bo'lmashligi, shu bilan bir qatorda o'z mol-davlatiga ishonib yashamaslik kerakligi, bu dunyo hammadan qolishi aytiladi:

Beshak biling bu dunyo barcha eldan o'taro,

Inonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro.

Ota-ona, qarindosh qayon ketdi fikr qil

To'rt oyoqlik cho'bim ot bir kun senga yetaro.

Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema,

O'zgarlar molin yema, Sirot uzra tutaro.

Ahli ayol, qarindosh, xech kim bo'lmaydi yo'ldosh,

Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro.

Qul Ho'ja Ahmad toat qil, umring bilmam necha yil,

Asling bilsang qaro gil, yana gilga ketaro.

Yassaviy hikmatlaridagi asosiy o'rinni pand-nasihat egallaydi. Hikmatlarning barchasida so'fiylik tariqatining asoslari - haqiqatni bilish, Haqni sevish, nafsu dunyodan chekinishga da'vat etuvchi g'oyalar o'z aksini topgan. Inson ruhi va ongini har qanday illat, qabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina inson axloqida ko'zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo'llaridan biri sifatida ta'kidlanadi. Zero, tasavvuf-nafs lazzatlaridan voz kechish demakdir. Nafs-ochko'zlik, o'g'rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun Ahmad Yassaviyning hayotiy shiori qanoat sanaladi. Inson Haqni "ko'rish"ga yetishish uchun oziga qanoat qilishi, shukronalik bildirishi, halol luqma yeyishi lozim. Nafsga mute' bo'lganlar esa xudbinlikdan qaytmaydi, nafs balosiga uchraydi.

Alisher Navoiy Yassaviy to'g'risida "Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoniy va nomahsur ermish. Murid va ashob g'oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida yermish", - deydi. Bu fikr Yassaviyning Turkistonga qaytib, yangi tariqatga asos solgan murshid sifatida tanilgan davrlariga tegishli. Movarounnahrda "Yassaviya" tariqatidan keyin ikki yirik tariqat paydo bo'lgan. Birinchisi — "Naqshbandiya", ikkinchisi — "Bektoshiya". Tasavvufdagi boshqa tariqatlarda bo'lgani kabi "Yassaviya" tariqatida ham o'z qoidalari (odoblari) mavjud.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan tushunamizki, Xoja Ahmad Yassaviy nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy tarixida keng ma'lum bo'lgan mutasavvuf donishmand, ruhiy va jismoniy komillik sari yetaklaydigan insonparvar shoir bo'lgan.

Ahmad Yassaviy nodonlik tufayli hayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma'naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik, nodon insonning

eng tuban shaxs ekanligi, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma'rifat bo'lmagan o'lkada mamlakatning inqirozga yuz tutishini alohida qayd etib o'tadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida Haqqa yetish yo'lini targ'ib qilar ekan, insonni jaholat botqog'idan xalos qilish lozimligiga urg'u beradi. U "Shariatda orif-biloh bo'lishni, tariqatda voqif-asror bo'lishni, haqiqatda komil-mukammal bo'lishni, ma'rifatda daryoi ummon bo'lishni talab qiladi".

YUqorida bayon etilgan fikrlardan anglanadiki, Ahmad Yassaviy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar insonni yomon illat, nafs balosidan voz kechishga undaydi. Yomon illatlar va nafs balosidan xalos bo'lish insonni ruhiy va jismoniy komillik sari yetaklaydi.

Aslini olganda, Mansur Xalloy ham, Imom G'azzoliy ham, Ahmad Yassaviy ham ruhiy kamolotga intilganlar. Zero, ular intilgan komillik - Haqqa yetishish,-unga muhabbat qo'yish, shu ishq dardi bilan yashash, tavba-tazarru, sabru qanoat, shijoat, to'g'rilik, rostgo'ylik, samimiyat, nafsni tiyish, undan g'olib kelish, har bir inson qalbini chirkin illatlardan xalos etuvchi faqru fano kabi xislatlarning majmuidan iboratdir.

Ahmad Yassaviy 63 yoshidan keyingi, ya'ni payg'ambar yoshiga yetgandan so'ng umrining davomini yerto'lada o'tkazgan. Shu bilan birga Yassaviya tariqati asoschisi hisoblanadi.

Ular inson kamolotining ta'minlanishi uchun turli yo'llarning samarali ekanligini asoslashga harakat qilganlar. Shu bilan birga, tadqiqotchilar Yassaviya ta'limoti g'oyalariga ko'ra zolim hukmdor, nopok din peshvolari, nodon va johil kishilarga nisbatan muxolifat mavjudligi ta'kidlanganligidan guvohlik beradilar.

XIV asrning boshlariga kelib, Movarounnahrda so'fiylikning yana bir oqimi Naqshbandiya tariqati shakllandi.

Naqshbandiya ta'limoti o'zining hayotiy g'oyalari bilan boshqa tariqatlardan tubdan ajralib turadi. Naqshbandiya tariqatining "ildizi" uzoq davrlar, ya'ni, Sharq Uyg'onish davriga borib taqaladi. Markaziy Osiyoda ikki buyuk olim — Abulqosim Ali al-Xoroqoniy (1034 yilda 80 yoshida vafot etgan) hamda Abu Ali al-Farmadiy (1084 yilda vafot etgan)larning so'fiylik ta'limoti rivojida katta hissasi bor ekanligini ta'kidlaydi. Tasavvuf olamining mashhur faylasuflari Ahmad al-G'azzoliy va Yusuf Hamadoniylar (1049-1140 yillar) Abu Ali al-Farmadiyning shogirdlari sanaladi.

Buyuk mutasavvuf va "karamati zo'r" valiy haqida gap ketganda yurtdoshlarimiz qalbida Turkiston diyoridan chiqqan mutafakkir nomining va ta'limotining ulug'vorligidan faxrlanish tuyg'usi uyg'onadi. U zotning ulug'ligini shundan ham ko'rishimiz mumkinki, nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri, YUNESKO tomonidan 1993-yil "Yassaviy yili" deb e'lon qilindi. Darhaqiqat, qariyb sakkiz asrki, Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotiga, uning hikmatlariga qiziqish kuchaysa kuchaydiki, susaymadi. Bu esa uning nomi, ta'limoti, asarlari umrboqiylikidan nishonadir.

O‘rta Osiyoda XII asrda paydo bo‘lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy ba’zi manbalarda XI asrning ikkinchi yarmida, ba’zi manbalarda 1103 yilda Sayramda (Yassi) dunyoga kelgani aytiladi. Uning vafot etgan vaqti ko‘pgina qo‘lyozma manbalarda 1167-yil deb yozilgan. Ammo ba’zi rivoyatlarda uni 130 yil yashagan, deyishadi.

Ahmad Yassaviyning otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo‘lgan. Onasi Qorasoch momo nomi bilan mashhur. Ahmad Yassaviy yoshligida onasidan, so‘ng otasidan ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg‘ul bo‘ladi. Opasi bilan Yassiga ko‘chib borgach, birinchi ustoz Arslonbob bilan uchrashadi va undan tahsil oladi (“Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdim...”).

Ahmad Yassaviy dastlabki ta’limotini Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. So‘ngra bobosi Arslonbob ko‘rsatmasi bilan Buxoroga borib Yusuf Hamadoniydan ta’lim oladi. Ahmad Yassaviyning o‘zi ustoz Yusuf Hamadoniyning huzuriga 23 yoshda borganini va uning tarbiyasiga noil bo‘lganini e’tirof etadi. Buxoroda u arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqur o‘rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni, Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslak bo‘lib, Yusuf Hamadoniy muridlari qatoridan o‘rin oladi.

Yusuf Hamadoniyning Buxorodagi shogirdlari orasida Hasan Andoqiy, Abdullo Baraqiy, Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G‘ijduvoni alohida ajralib turardi. Keyinroq bu to‘rt iste’dodli shogird Hamadoniy maktabini muvaffaqiyat bilan davom ettirdilar. “Yassaviya”, “Naqshbandiya” tariqatlari Hamadoniy ta’limoti asosida shakllandi.

Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmini shu qadar chuqur egallaydiki, xalq orasida “Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad” degan naql paydo bo‘ladi. Tasavvuf – Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining ma’naviy hayoti tarixidagi eng murakkab, o‘zaro ziddiyatlarga to‘lib-toshgan va muhim hodisalardan biri bo‘lib, uning uchun tarkidunyochilik, bu dunyo boyliklaridan va noz-u ne‘matlaridan voz kechish, Alloh vasliga yetmak maqsadida pok, halol, o‘z mehnati ila yashash, ixtiyoriy ravishdagi faqirlik xarakterli xususiyatlardan hisoblangan.

“Yassaviya” tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo‘lmish “Hikmat”da mufassal bayon etilgan. “Hikmat” asarida “Yassaviya” ta’limotidagi poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, o‘z qo‘l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo‘lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg‘or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Ayrim manbalarda Ahmad Yassaviy 4400, boshqa manbalarda 9900 hikmat aytgan deyishadi. (Shoirning o‘zi devonida “To‘rt ming to‘rt yuz hikmat aytdim, haqdin farmon”, deydi. Ibrohim Haqqulovning yozishicha, turk olimi Komil Erarlon bu

raqamni keyingi shoirlar to‘qigan, degan fikrni aytadi). Bizningcha ham, 4400 raqami ramziy ma’nodan ishlatilgan. Aslida gap shoir hikmatlarining sonida emas, mazmunidadir.

Sohibqiron Amir Temur farmoni bilan 1395-1397-yillarda Turkistonda “Yassaviya” tariqatining asoschisi Xo‘ja Ahmad Yassaviyning qabri o‘rnida muhtasham maqbara qurdiriladi. Amir Temur alohida farmon qabul qilib, maqbara yonida masjid va xonaqoh darvishlari va ziyoratchilari uchun 60 chelak suv sig‘adigan katta doshqozon yasatgan. Og‘irligi 2 tonna, chetining aylanasi 2,75 gaz keladigan, yetti xil metall: temir, ruh, qo‘rg‘oshin, qalay, qizil mis, kumush va oltin qorishmasidan yasalgan mazkur qozon tabrizlik ohangar usta Abdul Aziz ibn Sharafiddin va uning shogirdlari qo‘li bilan yasalgan. Bu qozonga o‘xshash nodir ajoyibot dunyoning boshqa hech bir diyorida uchramaydi. Bayram, hayit kunlari Yassaviy masjidiga son-sanoqsiz ibodat qiluvchilardan kelganida, bu qozonga shu maqbara ostidan chiqadigan muqaddas buloq suvidan to‘ldirib, odamlarga ulashilgan. Ziyoratchilar ko‘ngillari poklanib, kasalliklardan forig‘ bo‘lib ketishgan.

Turkistonning qadimiy shahrida YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan va Markaziy Osiyoning asosiy ziyoratgohlaridan biri sifatida e’tirof etilgan me’morchilik durdonasi – Xoja Ahmad Yassaviyning mahobatli maqbarasi joylashgan. Bu yer tarix, din va san’at o‘zaro chambarchas bog‘lanib, asrlar davomida ziyoratchilar, sayyohlar va tadqiqotchilarni o‘ziga jalb etib kelgan ma’naviyat markazining o‘ziga xos muhitini yaratgan maskandir. Xoja Ahmad Yassaviy (1103–1166) buyuk so‘fiy shoiri, faylasuf va voiz, turkiy tildagi so‘fiylik maktabining asoschisi. Uning she’riyat va nasrda o‘z ifodasini topgan ta’limoti O‘rta Osiyo va Volga bo‘yi musulmonlarining ma’naviy hayotiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Yassaviy vafotidan so‘ng Turkistondagi kichik maqbaraga dafn etilgan bo‘lsa, oradan ikki asr o‘tib, 14-asr oxirida hukmdor Temur (Temur) avliyo xotirasiga arziydigan muhtasham inshoot qurishni buyuradi. Qurilish 1390-yilda boshlanib, Temurning nabirasi Ulug‘bek qo‘li ostida tugatilgan. Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi Sharq me’morlik an‘analari va turkiy naqshlar sintezining yorqin namunasidir.

Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi Sharq me’morlik an‘analari va turkiy naqshlar sintezining yorqin namunasidir.

Asosiy gumbaz— Markaziy Osiyodagi eng yiriklaridan biri, diametri 18 metrdan oshadi. Qoplama firuza, ko‘k va oq soyalarda murakkab geometrik va o‘simlik bezaklarini hosil qiluvchi sirlangan plitkalardan qilingan.

Ichki makon mutanosiblik uyg‘unligi va dekorativ qoplamalarning boyligi bilan hayratda qoldiradi.**Bu yerda joylashgan:**

Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi, o‘yilgan qabr tosh bilan qoplangan;

Takazan— 1399-yilda insonning olijanob fazilatlarini ifodalovchi yetti metall qotishmasidan quyilgan diametri salkam 3 metr va og'irligi 2 tonnaga yaqin bronza piyola;

Noyob qo'lyozmalarga ega kutubxona, jumladan, Yassaviyning o'zi matnlari; Namoz, o'qish va ziyoratchilarni qabul qilish uchun zallar.

Devor va gumbazlar rang-barang mozaikalar, tosh va yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan, ravoqli teshiklari yupqa bezakli hoshiyaga ega.

Maqbara atrofida yaxlit ansamblni tashkil etuvchi binolar majmuasi: masjid, madrasa va xizmat xonalari joylashgan.

Temuriylar buyurgan kattaroq maqbara ziyoratgohning diniy ahamiyatini yanada oshirdi. Qozoq xonligi davrida taniqli shaxslar yodgorlik yaqinida dafn qilishni afzal ko'rganlar. Jumladan, Abulxayr, Rabiyyi Sulton-Begim, Jo'lbarisxon, Esimxon, Ondan-Sulton (Shig'ayxonning o'g'li), Ablayxon, Qoz davusti Kazbekbi. Maqbaraning muqaddas obro'si begona yurtlarga ham yetib bordi. XVI asr boshlarida qo'shni o'zbek xonligidan Muhammad Shayboniyxonning vorisi bo'lgan Ubaydullaxon keyinchalik Mo'g'ullar imperiyasining asoschisi bo'ladigan Boburga qarshi jangidan oldin maqbarada to'xtagan. Agar g'olib chiqsa, uning hukmronligi shariat qonunlariga to'liq amal qilishiga qasam ichadi.

Sovet davrida yodgorlik ommaviy ravishda yopilganiga qaramay, tartib bekor qilinganidan keyin maqbara ziyoratchilarni jalb qilishda davom etgan. Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi hozirgi kungacha qozoq musulmonlarining ziyoratgohi bo'lib kelgan. Demak, Turkiston shahri O'rta Osiyo musulmonlari uchun ikkinchi Makka bo'ldi.

Darhaqiqat, maqbaraning shahar uchun ahamiyatini Turkistonning sobiq nomi Hazrati Turkiston tasdiqlaydi, bu so'zma-so'z „Turkiston avliyosi“ degan ma'noni anglatadi va to'g'ridan-to'g'ri Yassaviyga ishora.

O'ziga xos qozoq millati paydo bo'lgan avvalgi Qozoq xonligining poytaxti sifatida Turkiston hozirgi Qozog'istonning madaniy yuragi bo'lib qolmoqda. Maqbara so'fiy ilohiyot olimi va xonlikning qozoq zodagonlari dafn etilgan joy bo'lib, shaharning nufuzini yanada oshirdi. Qozoq millati va Markaziy Osiyo islom dinining hozirgi zamonda ham davom etishi Turkistonning tarixiy va madaniy ahamiyati, markazida Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi ekanligidan dalolat beradi. Islom olamining eng buyuk maqbaralaridan biri sifatida qabul qilingan u saqlanib qolgan va mintaqadagi e'tiqod va me'morchilik yutuqlarining muhim yodgorligi bo'lib qolmoqda.